



“QADRI BALAND ONA TILIM!”

Djalilova Gulbakhor Anarbayevna

Vatantoshlar jamoat fondining xorijdagi volontyori

Eyndhoven shahri, Niderlandiya Qirolligi

Mobil raqam: +31 6 15 26 73 73

E-mail: bahardjalilova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10052350>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2023

Accepted: 29th October 2023

Online: 30th October 2023

KEY WORDS

O'zbek tili, davlat tili, O'zbekiston, Niderlandiya Qirolligi, Eyndhoven, ona tilim, til bayrami, xorijlik mehmonlar, vatandoshlar, o'zbek tili do'stlari, o'zbek xalqi.

ABSTRACT

Millat tarixi bizni o'tmishdan zamonaviylik sari yetaklovchi tikonli yo'lga o'xshaydi. Tikonli ignalar bilan jarohatlanmasdan o'tish mumkin emas. Jasur va matonatli o'zbek xalqi ham har qanday og'ir sinovlardan o'tib o'z ozodligi va istiqloli uchun mardona kurashdi. Bu yo'lda behisob qurbonlar berdi va o'z tilini – milliy g'ururini saqlab qoldi.

Til – oz'bek xalqining asrlar davomidagi ma'naviy xazinasi demakdir. Bu pul emas, oltin yoki hatto qimmatbaho toshlar ham emas. Bu boshqa qadriyatlar: o'zbek tilida ohangdor go'zal so'zlar, ma'noli iboralar, o'tkir maqollar, aqlli gaplar, o'rinli latifalar shuningdek qalb tubiga singib ketgan she'rlar, ajoyib qo'shiqlar va hikmatli kitoblardir. Shuningdek, til — dil jarchisi, kaliti, tarjimoni va aql bezagi hisoblanadi.

Til xalqning madaniyatini saqlash va rivojlantirishning asosiy quroli hamdir. Shu qurolni Niderlandiya Qirolligining Eyndhoven shahrida yashovchi 10 dan ortiq davlatning 50 dan ortiq vakillarida namoyish etishga muvaffaq bo'lindi. O'zbek tilimiz bizning – boyligimiz, milliy g'ururimizdir va uni chet davlatlarda yashayotgan farzandlarimizga o'rgatishimiz kerak. Millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarini, betakror san'at va adabiyotimizni shuningdek ona tilimizni ko'z qorachig'iday saqlashimiz lozimdir.

Kirish.

Er shari turli xil davlatlarda yashovchi millat, xalq va elatlar bilan to'la ekan har bir mamlakatda yashovchi inson o'z tiliga egadir. Til insonlarning bir-biri bilan muloqot qilish va tushunishi uchun universal vosita bo'lib xizmat qilishi barchamizga ma'lum. Minglab xalqlar yashaydigan dunyoda ularning gapirishlari uchun 7000 dan ortiq tillar mavjud ekan. Har kim



o'z tili bilan tirik bo'lib, ona tili millatining iftixori hamdir. Ayniqsa, til har bir millatning tarixi, madaniyati, urf-odati va uning turmush tarzi hisoblanadi.

Ma'lumki, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so'zlashadi. O'zbekiston Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib, bu o'z navbatida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, qolaversa turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbek tili bu mening ona tilimdir. Serquyosh vatanimda yashovchi barcha xalqlar muloqot qiladigan o'zbek til juda ham boy tildir. Zamonaviy o'zbek tilining lug'ati kamida yarim million so'zni o'z ichiga olar ekan, bu uning dunyodagi eng ohangdor va ko'p qirrali tillardan biri ekanligini anglatadi.

Men o'zbek tilimdagi so'z va iboralarning jaranglashini va u juda go'zal bo'lgani uchun yaxshi ko'raman. Chunki, o'zbek tili mening madaniyatim va tariximning bir qismidir. Men o'zbek ekanligimdan va bu go'zal tilda gaplasha olganimdan faxrlanaman. Ona tilini sevmagan, uning qadrini anglamagan inson yuragida el-yurtga bo'lgan muhabbat ham bo'lmaydi. Ona tili – xalqlar tili, ajdodlar tili, insonni o'z xalqi bilan bog'lab turuvchi tildir.

Biz tilimizni asrash va uni rivojlantirish uchun qanchalik harakat qilsak, uning dunyo hamjamiyati maydonidagi nufuzi va poydevori shunchalik mustahkamlanib boradi. Til tirik ekan, millat barhayotdir. Ko'pchilik chet tillarida gaplashadi, bu sayohat, ishning o'ziga xosligi bilan bog'liqdir. Ba'zilar esa ingliz va rus tillarni bilish o'zbek tilini bilishdan ko'ra muhimroq deb hisoblaydi. Biroq, mening ishonchim komilki, o'zbek tilini bilish madaniyatimiz, tariximiz va milliy o'zligimizni saqlab qolish uchun juda zarur. Ona tilim men uchun har doim eng yaqin, yagona va qadrli bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Hozirgi kunda o'zbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. O'zbek tili bayramining mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng nishonlanishi xalqimizning milliy ruhi va g'ururini yuksaltirdi. Davlat tili sifatida hayotimizda mana 34 yildan buyon to'laqonli foydalanib kelmoqdamiz. O'zbek tili o'tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o'zaro bog'laydigan mehr-oqibat tiliga aylangan desam adashmayman.

O'zbek tiliga qoyil qolmaslik mumkin emas. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy *“Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti — bu uning milliy tili va adabiyotidir”* deb ta'kidlagan. O'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy hazratlari esa *“Tilga e'tibor, elga e'tibor”* deya bejiz aytib o'tmagan. Hurmatli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev nutqlaridan birida *“O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir”* deydi. *“Vatandoshlar”* jamoat fondining boshqaruvi raisi Odiljon Sattarovning xorijdagi vatandoshlarga atalgan tabrigida *“Til insoniyatga berilga bebaho ne'mat”* deganlar. Shunday o'tkir va ma'noli gaplardan keyin biz o'zbeklar tilimizni nafaqat asrab avaylab balki chet davlarda turib targ'ib etmogimiz ham joizdir.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlar hal qiluvchi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'lda milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ona tilimizda qanchadan-qancha ajoyib asarlar o'zbek adiblarimiz va shoirlarimiz tomonidan yozilgan. Poytaxtimiz markazidagi Milliy bog' hududida *“Adiblar xiyoboni”* bunyod qilingan. Bu



go'zal maskanda barpo etilgan yodgorlik majmualari adabiyotimizning buyuk namoyondalari, o'zbek tilining chinakam jonkuyarlari xotirasiga bag'ishlangani ayniqsa e'tiborlidir.

Ona tilimizga bo'lgan e'tiborni vatanga ehtirom va sadoqat deb bilib xorijdagi hayotim davomida qo'llab kelmoqdaman. Tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, ona - vatanga bo'lgan mehrimni amaliy faoliyatda namoyish etib, kuni kecha "O'zbek tili" bayramiga bag'ishlangan festivalni Niderlandiya Qirolligining Eyndhoven shahrida "Vatandoshlar" jamoat fondi hamda mamlakatimizning BeNeLux davlatlaridagi elchixonalar vakillari bilan hamkorlikda tashkil etishga muvaffaq bo'lindi. Tadbirda Aljir, Afg'oniston, Braziliya, Iroq, Morokko, Niderlandiya, Palestin, Rossiya, Tunis, Turkiya, Hindiston va O'zbekiston davlatlari vakillaridan tashkil topgan 50 dan ortiq mehmonlar ishtirok etishdi. Vatandan uzoqda bo'lsamda, o'z ona tilimni saqlab qolish va u bilan muloqot qilishni davom ettirish juda muhim deb hisoblayman. Ushu O'zbek festivalida tilimizning xalqaro miqyosdagi obro' - e'tiborini yuksaltirish uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozimligiga ham e'tibor qaratildi.

O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bir qator ishlarning davlatimiz tomonidan qilinayotgani xorijda turib vatan sog'inchida yashayotgan insonlarga yaqqol ko'rinadi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi "Turk dunyosi birligini ta'minlashga qo'shgan hissasi uchun" xalqaro mukofot ta'sis etildi. Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Muso Al-Xorazmiy kabi allomalarning madaniy merosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Xorijiy davlatlarda joylashgan elchixonalar hamda madaniy markazlarda "O'zbek tilining do'stlari" klublari tashkil etilmoqda.

Men xorijda yashasamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligimdan, qolaversa, Turkiy qavmlarni yagona saltanatda birlashtira olgan Amir Temur boshqargan yerlarda yashagan o'zbek xalqining avlodi ekanligimdan faxrlanaman. Ona tilimiz - milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning, nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir. O'zbek tili bayramini Niderlandiya Qirolligida turli xil millat vakillari davrasida nishonlanishi hamda tashrif buyurgan chet elliklar tomonidan o'zbek tilining nozikligi, nafisligi va shirinligining ta'kidlanishi insonga g'urur va iftixor baxsh etdi.

Xulosa

Har bir inson qaysi yurtda yashamasin, to'liq muloqot qilishi, madaniyatini tushuntira olishi va adabiy durdonalaridan bahramand bo'lish uchun o'z ona tilini bilish zarur. Biz o'zbek xalqi ona tilimizni dunyoda jonli va zamonaviy til bo'lib qolishi uchun asrab-avaylashimiz va targ'ib qilishimiz lozimdir.

Har bir til darhol shakllanmagan, u o'zida xalqning butun tarixi va an'alarini olib yurgan. Xalqning tarixini e'zozlab, o'zbek tilimizda gapirish va uni ayniqsa xorijda turib yuksaklarga ko'tarish tahsinga sazovordir.

Til madaniyat ko'zgusi va ruhimizning qanoti ekan, biz ona tilimiz orqali xalqlar, millat va elatlar orasida hamisha aziz-u mukarram ekanligimizni aslo unutmasligimiz kerak. O'zbekona lutf, muomala, milliy qadriyatlar va odob-axloq ona tilimiz madaniyatining kalitidir. Gap so'ngida bizni yuksaklik sari chorlaydigan iborani ya'ni - "Qadring baland bo'lsin ona tilim" deb takror va takror baralla aytib qolaman.



References:

1. Shavkat Mirziyoyev: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir". <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-uzbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-tim>
2. Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari yig'ilishi bo'lib o'tdi. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/11/11/01234567890-141-1905159>
3. 21-oktyabr — O'zbek tili bayrami kuni. <https://uzreport.news/society/21-oktabr-uzbek-tili-bayrami-kuni>
4. Adiblar xiyoboni. <http://visittashkent.uz/uz/content/news/317>
5. 21-oktabr O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun. <http://geografiya.uz/muhim-va-mashhur-sanalar/9670-21-oktyabr-uzbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilgan-kun.html>
6. Bobolardan bizga meros ezgu til. <https://yuz.uz/uz/news/bobolardan-bizga-meros-ezgu-til>
7. Она тили - миллат руҳининг ифодаси. <http://www.rusmetodika.net/shkola-molodyh-metodistov-radost-obschenija/ona-tili-millat-ru-ining-ifodasi.html>
8. 21 oktyabr "Til bayrami" munosabati bilan o'tkazilgan "Til va dil" tanlovining yakunlari. <http://old.natlib.uz:8101/uz/news/652.html>.